



**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TARBIYA DARSLARIDA
GENDER TENGLIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH**

Mamatqulova Gulshana Klediyor qizi

Nukus innovatsion universiteti

Boshlang'ich ta'lim 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *So'nggi to'rt yilda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi. Belgilansinki, Gender strategiyasini 2023 — 2030 yillarda bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun har yilda alohida-alohida kompleks chora-tadbirlar dasturlari tasdiqlanadi. Jamiyatning har tomonlama rivojlanishida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda bu masalaga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, 2030 yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasi kabi muhim hujjatlar qabul qilingan. Ushbu maqolada farzandlarimizda gender tenglik madaniyatini kichik yoshdanoq shakllantirish, ularning ongida o'g'il va qiz bolalarga nisbatan hurmat, o'zaro tushunish va tenglik tamoyillarini singdirish bugungi kun ta'lim-tarbiyasining dolzarb vazifalari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Tarbiya, Gender-tenglik, ijtimoiy, mexanizm, gender modellar, imkoniyat, munosabat, shaxslararo, xoslik.*

Аннотация: *за последние четыре года был проведен широкий спектр реформ, направленных на достижение равных прав и возможностей для женщин и мужчин, обеспечение их равного участия в управлении делами общества и государства, социально-правовую поддержку женщин, а также защиту женщин от притеснений и насилия. Вопрос гендерного равенства был поднят до уровня государственной политики, и было принято 25 законодательных актов, касающихся этой области. Создана республиканская комиссия по повышению роли женщин в обществе, по вопросам гендерного равенства и семьи, комитет по вопросам женщин и гендерного равенства в Сенате Олий Мажлиса Республики Узбекистан. Установить, что для поэтапной реализации гендерной стратегии на 2023 — 2030 годы ежегодно утверждаются отдельные программы комплексных мер. Обеспечение равных прав и возможностей для женщин и мужчин приобретает важное значение для всестороннего развития общества. В Узбекистане этому вопросу уделено внимание*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



на уровне государственной политики, приняты такие важные документы, как стратегия достижения гендерного равенства до 2030 года. В данной статье рассмотрены актуальные задачи сегодняшнего воспитания и формирования у наших детей культуры гендерного равенства с раннего возраста, привития в их сознании принципов уважения, взаимопонимания и равенства по отношению к мальчикам и девочкам.

Ключевые слова: воспитание, гендерное равенство, социальное, механизм, гендерные модели, возможность, отношение, межличностное взаимодействие, идентичность.

Annotation: *over the past four years, large-scale reforms have been implemented aimed at achieving equal rights and opportunities for women and men, ensuring their equal participation in the management of society and state affairs, supporting women in socio-legal terms, as well as protecting women from harassment and violence. The issue of Gender equality has risen to the level of Public Policy and 25 legislative acts have been passed on the industry. The Republican commission on gender equality and family affairs, the Committee on women and gender equality in the Senate of the OECD, was established to increase the role of women in society. It should be noted that in order to gradually implement the Gender strategy in 2023 — 2030, the programs of complex measures will be approved separately every year. In the comprehensive development of society, it is important to ensure equal rights and opportunities for women and men. Uzbekistan has focused on this issue at the level of Public Policy, and by 2030, important documents such as the strategy for achieving gender equality have been adopted. This article reflects on the urgent tasks of today's education to form a culture of gender equality in our children from a young age, instill in their minds the principles of respect, mutual understanding and equality in relation to boys and girls.*

Keywords: *education, gender equality, social, mechanism, gender models, opportunity, attitude, interpersonal interaction, identity.*

Kirish: O'quvchi qizlar va o'g'il bolalarda gender o'ziga xoslikni shakllantirish ularni milliy-madaniy yondashuv asosida ijtimoiy hayotga tayyorlashning muhim shartidir. Chunki gender o'ziga xoslik o'quvchi shaxsining tashqi hamda ichki qiyofasidagi uzviylik va o'zaro muvofiqlikni ta'minlash imkonini beradi. Gender o'ziga xoslik o'quvchilarning ichki dunyosi bilan ijtimoiy-madaniy muhit orasidagi o'zaro muvofiqlik mexanizmlarini ochish imkonini yaratadi. Natijada, o'g'il va qiz bolalar ijtimoiy jihatdan o'zaro madaniy munosabatga kirishish imkonini beradigan xulq-atvor modellarini o'zlashtiradilar.

Ma'lumki, shaxslararo munosabatlarda o'zaro qarama-qarshiliklarning ko'lami kengayib bormoqda. Gender modellar aksariyat hollarda o'ziga xosligini yo'qotmoqda. O'g'il va qiz bolalarning har biriga xos bo'lgan g'ziga xoslik ommaviy va marginal madaniyat ta'sirida yo'qolib bormoqda. Buni birinchi navbatda gender modellarining dunyoqarashidagi og'ishlar va cheklanishlarda ko'rish mumkin. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Prezidenti davlat va jamiyat hamda uning asosiy mexanizmi bo'lgan ta'lim tizimini shaxs tarbiyasiga alohida e'tibor qaratishga undamoqda.

Tarbiyaviy jarayonlarning asosiy vazifalaridan biri gender modellarda gender o'ziga xoslikni shakllantirishdan iborat bo'lishi kerak. Buning uchun uzluksiz tarbiya jarayonlarida gender modellarda o'ziga xoslikni shakllantirish va uzluksiz rivojlantirish mexanizmlarini o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish vazifasi kun sayin dolzarblashmoqda. Chunki o'ziga xoslikning ko'rinishlaridan biri gender mansublikdir. Gender o'ziga xoslik har bir shaxsning gender model (o'g'il yoki qiz bola sifatida) o'zini namoyon qilishiga imkoniyat yaratadi. Bu o'z navbatida gender modellarning jamiyat madaniy-ma'naviy taraqqiyotini ta'minlashiga sharoit yaratadi. O'quvchilarda esa o'z "men"ining obrazini shakllantirishga ko'maklashadi. Natijada gender modellar o'zligini anglagan holda ijtimoiy funksiyalarini bajarishga moslashadilar. Gender modellarga asoslangan ta'lim jarayoni ko'pincha o'quvchilarni o'g'il yoki qiz bolaga ajratish nuqtai nazaridan yondashiladigan hodisa sifatida baholanadi. Ta'lim jarayonida esa aksariyat hollarda o'quvchilarning gender xususiyatlariga e'tibor qaratilmaydi. Bu o'z navbatida o'quvchilarda gender o'zo'zini anglash tuyg'usining yetarlicha shakllanmasligiga asos bo'ladi.

Gender modellarga asoslangan ta'limda o'quvchilarning jinslarga ko'ra rollarini shakllantirish hamda jismoniy rivojlanishini nazarda tutishi kerak. Shu bilan bir qatorda uyg'un tarzda rivojlangan shaxsni shakllantirish, gender stereotiplarning ildizlarini bartaraf etishdan iborat. Shuning uchun ham o'quvchi hamda talaba yoshlarda gender madaniyatni shakllantirish O'zbekiston jamiyatidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda tarbiya fanida ta'lim jarayoniga gender modellarni tatbiq etishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Gender model tushunchasi lotinchadan kirib kelgan bo'lib, gens - lot. "tug'ilish" ma'nosini anglatib, qiz yoki o'g'il bola modelini o'z ichiga oladi. Biologik jinsdan farqli tarzda jamiyatda tuzilma shaklida ifodalanadi. Jamiyatdagi turli-tuman madaniyatlarda tarixiy jihatdan shakllangan milliy xarakterdagi modellar mavjud.

O'zbekiston jamiyatida garchand o'zbek millatiga xos bo'lgan gender model mikrosotsiumning asosini tashkil etsada, boshqa gender modellarga nisbatan tolerant yondashuv amalga oshirilmogda. O'quvchi hamda talaba yoshlarni ham xuddi mana shu yondashuvga asoslangan holda tarbiyalash natijasida O'zbekiston jamiyatida gender madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi. Har bir jamiyat o'z taraqqiyoti davomida ayollarga xos bo'lgan (feminlik) hamda erkaklarga xos bo'lgan (maskulin) belgilar majmuini shakllantiradi. Mazkur belgilar o'zida milliy mentalitetga xos bo'lgan jihatlarni mujassamlashtiradi.

Ushbu belgilar yordamida o'quvchi hamda talaba yoshlarda xulq-atvor shakllari tarkib topadi. Gender xususiyatlar bola tug'ilgan dastlabki kunlardan boshlab ota-onalar tomonidan shakllantiriladi. Bu o'g'il va qiz bolalarning kiyimlari, o'yinchoqlari, anjomlar va ularni erkalovchi so'zlarda o'z ifodasini topadi. Masalan, o'g'il bolalarga "toychoq'im", qizlarni "qizg'aldog'im" deb erkalash, qizlarga pushti, qizil kiyimlar olib berish, qo'g'irchoqlar hadya qilish, o'g'il bolalarga esa koptoklar, mashinalar, harbiy kiyimchalar





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



hadiya etish an'anasi shakllangan. O'g'il bolalar uchun qat'iylashgan model ularning oila boshlig'i, oilaning ta'minotchisi, unda yashovchi qizlar va ayollarning himoyachisi ekanligida namoyon bo'lsa, qiz bolalarni esa bo'lajak ona, uy bekasi, nazokat, nafosat, ibohayo sohibi qilib tarbiyalash an'anasi ko'p asrlar davomida shakllanib kelgan.

Ajdodarimiz gender modellarga tayangan holda ta'lim-tarbiyaning mazmuni, shakllari, vositalarini belgilaganlar. Bunday yondashuv xalq pedagogikasi va ajdodlarimiz merosida qat'iylashgan. Gender modellarga tayangan holda kasb-hunar turlari belgilangan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, gender modellar har doim ko'p yoqlamalik va bir-birini inkor etuvchi xarakterga ega. O'g'il bolalar kuchli, qat'iyatli, qizlar esa nozik, erkalanishga moyil, ko'ngilchan bo'ladilar. Jamiyatda qaror topgan gender modellar uning a'zolari tomonidan tasdiqlanadi va qo'llab quvvatlanadi. Bunday modellarni qa'iylashtirishda oila, ta'lim muassasalari, huquqtartibot muassasalari mas'ul hisoblanadilar.

Zamonaviy ta'lim tizimining oldida turgan muhim vazifalardan biri – o'quvchilarda nafaqat akademik bilimlarni, balki yuksak ijtimoiy va madaniy kompetentsiyalarni ham shakllantirishdir. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinflarda, xususan, 3-sinf "Tarbiya" darslarida gender tenglik mavzusini yoritish o'ta muhim ahamiyatga ega. 8-9 yoshdagi bolalar ijtimoiy munosabatlarni faol o'rganish, dunyoqarashlarini kengaytirish va xulq-atvor modellarini o'zlashtirish bosqichida bo'ladilar. Aynan shu davrda ularning ongiga o'g'il va qiz bolalarning teng huquqli ekanligi, ularning imkoniyatlari jinsga bog'liq emasligi haqidagi to'g'ri tushunchalarni singdirish kelajakda adolatli va hurmatga asoslangan jamiyatni qurishning poydevoridir.

Mavzuning dolzarbligi: Nega aynan 3-sinf ?

Uchinchi sinf o'quvchilarida quyidagi psixologik va ijtimoiy xususiyatlar kuzatiladi:

Ijtimoiy rollarni anglash: Ular "o'g'il bola" va "qiz bola" tushunchalarini nafaqat biologik jihatdan, balki ijtimoiy kutuvlar nuqtai nazaridan ham farqlay boshlaydilar.

Guruhli faoliyatga intilish: O'quvchilar jamoa bo'lib ishlashga, o'rtoqlari bilan muloqot qilishga katta qiziqish bildiradilar.

Stereotiplarning shakllanishi: Atrof-muhit, oila, ommaviy axborot vositalari ta'sirida "o'g'il bolalar kuchli bo'lishi kerak", "qizlar esa muloyim bo'lishi kerak" kabi sodda gender stereotiplari shakllana boshlashi mumkin. Shu sababli, ta'lim jarayoniga to'g'ri pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish orqali ushbu stereotiplarning oldini olish va tenglik tamoyillariga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish mumkin.

Shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar.

"Tarbiya" darslarida gender tenglik mavzusi o'quvchilarda quyidagi kompetentsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim:

1. Bilim (Nimani bilishi kerak?):

"Tenglik" va "adolat" tushunchalarining mazmunini sodda misollar orqali tushunish. O'g'il va qiz bolalarning qiziqishlari, his-tuyg'ulari va orzulari turlicha bo'lishi mumkinligi va bu tabiiy hol ekanligini bilish. Barcha kasblar (shifokor, o'qituvchi, muhandis, oshpaz,



uchuvchi) ham o'g'il, ham qiz bolalar uchun ochiq ekanligini anglash. Har bir inson, jinsidan qat'i nazar, hurmatga loyiq ekanligini bilish.

2. Ko'nikma (Nimani qila olishi kerak?):

O'g'il va qiz bolalardan iborat guruhlarda samarali hamkorlik qila olish.

O'zgalarning fikrini, agar u o'zinikidan farq qilsa ham, tinglay olish va hurmat qilish. O'yin va mashg'ulotlar jarayonida jinsga ajratmasdan, adolatli qoidalarga amal qilish. Ertak yoki hikoya qahramonlari misolida gender stereotiplarini (masalan, "malikalar faqat yordamga muhtoj bo'ladi") aniqlay olish va muhokama qilish.

3. Malaka (Amaliyotda qanday qo'llaydi?):

Sinfdozlarining qiziqishlarini (masalan, futbol o'ynaydigan qiz yoki rasm chizadigan o'g'il bola) kamsitmasdan qabul qilish. Kundalik hayotda va dars jarayonlarida sinfdozlariga jinsidan qat'i nazar yordam qo'lini cho'zish. O'zining va o'zgalarning his-tuyg'ularini (xursandchilik, xafalik, jahl) jinsga bog'lamasdan ("yig'lash faqat qizlarga xos" emas) ifoda eta olish va tushunishga harakat qilish.

Darslarda qo'llaniladigan samarali metodlar.

Mavzuni 3-sinf o'quvchilariga singdirish uchun interfaol va o'yinli texnologiyalardan foydalanish yuqori samara beradi:

"Agar men bo'lganimda..." rolli o'yini: O'quvchilarga turli vaziyatlar taklif qilinadi (masalan, "Agar sinf sardori qiz bola bo'lsa.", "Agar futbol jamoasining kapitani qiz bola bo'lsa..."). Bu o'yin o'quvchilarni turli ijtimoiy rollarni o'zlarida sinab ko'rishga va stereotiplardan voz kechishga undaydi.

"Kasblar mozaikasi" guruhli ishi: O'quvchilar aralash guruhlarga bo'linib, turli kasb egalari rasmlarini chizadilar yoki kollaj yasaydilar. Vazifa – har bir kasbni ham ayol, ham erkak qiyofasida tasvirlash va nima uchun bu kasbni ikkala jins vakili ham bajara olinishini izohlash.

"Yaxshi sifatlar quyoshi": Doskaga quyosh rasmi chiziladi. O'quvchilar insonga xos bo'lgan ijobiy sifatlarini (jasurlik, mehribonlik, aqllilik, g'amxo'rlik, topqirlik va h.k.) aytishadi va bular quyosh nurlariga yoziladi. Muhokama davomida bu sifatning barchasi ham o'g'il, ham qiz bolalarga tegishli ekanligiga urg'u beriladi.

Ertak va hikoyalar tahlili: Zamonaviy va xalq ertaklarini o'qib, qahramonlarning xatti-harakatlari muhokama qilinadi. O'qituvchi o'quvchilarni "Bu qahramon o'rnida o'g'il/qiz bola bo'lganida nima o'zgarar edi?" kabi savollar bilan fikrlashga chorlaydi.

O'qituvchining roli va yondashuvi.

Bu jarayonda o'qituvchining o'rni beqiyosdir. Pedagog: Shaxsiy namuna bo'lishi: Darsda va darsdan tashqari vaqtda o'g'il va qiz bolalarga bir xil munosabatda bo'lishi, ularning barchasiga teng imkoniyatlar yaratishi lozim.

Gender-neytral tildan foydalanishi: Doimiy ravishda "qizlar" va "o'g'il bolalar" deb ajratish o'rniga "o'quvchilar", "bolalar", "do'stlar" kabi umumiy murojaat shakllanadi. Boshlang'ich sinf – bola shaxsiyatining poydevori qo'yiladigan davr. Aynan shu bosqichda ularda gender stereotiplari, ya'ni o'g'il bolalar va qiz bolalarning xulq-atvori, qiziqishlari va



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



ijtimoiy rollari haqidagi cheklangan tasavvurlar paydo bo'lishi mumkin. Shu sababli tarbiya darslarida gender tenglik mavzusida maxsus treninglar tashkil etish o'quvchilarda adolatli va keng dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Treningning maqsad va vazifalari:

Maqsad: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gender tenglik haqida boshlang'ich tushunchalarni shakllantirish, o'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi do'stona va hurmatga asoslangan munosabatlarni mustahkamlash.

Vazifalar: "Gender" va "tenglik" tushunchalarini bolalar uchun sodda va tushunarli tilda izohlab berish. Jamiyatda keng tarqalgan gender stereotiplarini (masalan, "o'g'il bolalar yig'lamaydi", "qizlar faqat uy ishlari bilan shug'ullanishi kerak") aniqlash va ularning noto'g'ri ekanini muhokama qilish. O'quvchilarni har qanday kasb, mashg'ulot yoki sport turini jinsga ajratmasdan tanlash mumkinligiga ishonitirish. Sinfda o'g'il va qiz bolalarning o'zaro hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va trening o'tkazish metodikasi juda qo'l keladi.

Treningni tashkil etish metodikasi

Treningni samarali o'tkazish uchun interfaol usullardan foydalanish maqsadga muvofiq. Mashg'ulotlar o'yin, muhokama, guruhlarda ishlash va ijodiy topshiriqlar shaklida tashkil etilsa, o'quvchilar mavzuni osonroq o'zlashtiradilar.

Treningning taxminiy rejasi:

1. "Tanishuv va kayfiyat" bosqichi (5 daqiqa)

"Mening sevimli mashg'ulotim" o'yini: O'quvchilar doira bo'lib o'tiradilar va navbatmanavbat o'zlarining sevimli mashg'ulotlarini aytib beradilar. O'qituvchi o'g'il bolalar ham, qiz bolalar ham turli xil qiziqishlarga ega bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

2. Asosiy qism: "Biz tengmizmi?" (20-25 daqiqa)

"Quyosh nurlari" munozarasi: Doskaga quyosh rasmi chiziladi. O'qituvchi "O'g'il bolalar qanday bo'ladi?" va "Qiz bolalar qanday bo'ladi?" degan savollarni o'rtaga tashlaydi. O'quvchilarning javoblari (masalan, "kuchli", "muloyim", "jasur", "mehribon") quyosh nurlari sifatida yozib boriladi. So'ngra, o'qituvchi bu sifatning barchasi ham o'g'il, ham qiz bolalarga tegishli bo'lishi mumkinligini muhokama qiladi.

"Kasblar yarmarkasi" interaktiv o'yini: Turli kasblar aks ettirilgan rasmlar (shifokor, o'qituvchi, muhandis, oshpaz, uchuvchi, raqqosa) tarqatiladi. O'quvchilardan bu kasblarni "faqat ayollarga xos" va "faqat erkaklarga xos" guruhlariga ajratish so'raladi. Muhokama davomida har qanday kasbni erkaklar ham, ayollar ham egallashi mumkinligi, asosiysi bilim va qiziqish ekanligi tushuntiriladi.

"Agar men" rolli o'yini: O'quvchilarga turli vaziyatlar taklif etiladi. Masalan, "Agar men sinf sardori bo'lsam", "Agar biz birgalikda sport musobaqasiga tayyorlansak". Bu o'yin o'g'il va qiz bolalarning birgalikda qaror qabul qilish va mas'uliyatni bo'lishish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

3. Yakuniy qism: "Do'stlik davrasi" (5-10 daqiqa)



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Rag‘batlantirishi: O‘quvchilarning noan‘anaviy qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlashi va ularning har qanday yutug‘ini jinsiga bog‘lamasdan e‘tirof etishi muhim. “Bir-birimizga tilak” mashg‘uloti: O‘quvchilar yana doira bo‘lib o‘tiradilar va navbatma-navbat o‘ng tomondagi o‘rtog‘iga (jinsidan qat‘i nazar) biror iliq tilak bildiradilar. ularni qo‘llashi kerak.

Treningga xulosa yasab shuni aytish mumkinki, o‘qituvchi mashg‘ulotni yakunlar ekan, eng asosiysi insonning jinsi emas, balki uning yaxshi inson, ishonchli do‘st va bilimli o‘quvchi bo‘lishi muhimligini yana bir bor ta’kidlaydi. Har bir inson o‘zining qiziqishlari va orzulariga ergashish huquqiga ega ekanligi, bunda o‘g‘il yoki qiz bola ekanligi to‘siq bo‘lmasligi kerakligini uqtiradi. Boshlang‘ich sinflarda tarbiya darslari doirasida gender tenglik mavzusidagi treninglarni muntazam o‘tkazib borish o‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Bu kabi mashg‘ulotlar nafaqat o‘zaro hurmat muhitini shakllantiradi, balki bolalarning o‘z imkoniyatlarini jins bilan bog‘liq stereotiplarsiz, erkinroq baholashiga yordam beradi. O‘zbekistonning barqaror rivojlanishida gender tenglikni ta‘minlash muhim o‘rin tutar ekan[5], bu tamoyillarni maktab ostonasidanoq singdirib borish kelajak avlodning yanada ma‘rifatli, adolatli va bag‘rikeng bo‘lib kamol topishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida, “Tarbiya” darslarida gender tenglik mavzusini yoritish – bu shunchaki qo‘shimcha mavzu emas, balki har bir bolada shaxs sifatida o‘zini namoyon qilishga, o‘zgalarni hurmat qilishga va adolatli munosabatlarni qadrlashga o‘rgatuvchi fundamental tarbiyadir. Interfaol o‘yinlar, muhokamalar va ijodiy topshiriqlar orqali o‘quvchilarning ongida gender tenglik nafaqat nazariy tushuncha, balki kundalik hayot me‘yori sifatida shakllanadi. Bu esa o‘z navbatida, ularning bag‘rikeng, ongli va mas‘uliyatli insonlar bo‘lib kamol topishiga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29 yanvar 2022 yildagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning tarakkiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF60-sonli Farmoni.
2. Xolmatova, Z. (2021). Gendernoe obrazovanie v Uzbekistane–kriterii silo‘ semi. Obhestvo i innovatsii, 2(9G’S), 253–265.
3. Gaskell, Jane, and Arlene McLaren. Women and Education: A Canadian Perspective. Detselig Enterprises, Ltd., PO Box G399, Calgary, Alberta T3A 2G3., 1987.
4. Acker S. Special series on girls and women in education: Creating careers: Women teachers at work. Curriculum inquiry. 1992 Jun 1;22(2):141-63.
5. Stromquist NP. Women and education in Latin America. Lynne Rienner Publishers; 1992.
6. Fox MF. Women, science, and academia: Graduate education and careers. Gender & Society. 2001 Oct;15(5):654-66.
7. Hamdan A. Women and education in Saudi Arabia: Challenges and achievements. International Education Journal. 2005 Mar;6(1):42-64.



**TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA
INNOVATSION G'OYALAR**

